

RASMIY USLUBNING EKSTRALINGVISTIK BELGILARI

A. Shodiyeva

Farg‘ona davlat universiteti

o‘zbek tili va adabiyoti kafedrasи o‘qituvchisi

asilashodiyeva@gmail.com

KIRISH

Uslub (arabcha – tartib, tartib-usul; usul, yo‘sin; shakl) **1** Til unsurlarining ma’lum vazifa bajarishiga bog‘liq holda birlashadigan, til birliklarining o‘ziga xos tanlanishi, birikishi va sh.k. bilan xarakterlanadigan tizimlar. Til uslublari. Funksional uslublar. **2** Til vositalaridan foydalanishning ma’lum bir yozuvchi, asar, janr uchun xarakterli bo‘lgan usullari majmui. A.Qahhor uslubi. Feletonlar uslubi. **3** Til vositalarining ekspressiv-uslubiy belgi asosida tanlanishi (saylanishi); nutqning so‘z qo‘llash va sintaktik me’yorlarga mos holda tuzilishi. Kitobiy uslub. Rasmiy uslub. Ilmiy uslub [1.B.299].

Har bir shaxs kundalik hayotda ko‘proq so‘zlashuv uslubidan foydalanadi, ammo so‘zlashuv uslubidan tashqari rasmiy ish yuritish uslubini ham bilishi lozim. CHunki ijtimoiy hayot bilan bog‘liq bo‘lgan har bir kishi fermermi, o‘qituvchimi, haydovchimi ariza, tilxat yoki tarjimayi hol yozishiga to‘g‘ri keladi, hatto taklifnomasi yozishni ham uslubi bo‘lib, uni to‘g‘ri yozish taklif qilinayotgan shaxs yoki shaxslarga bo‘lgan e’tiborni, hurmatni bildiradi.

Rasmiy (arabcha – ma’muriy, ma’muriyatga aloqador) **1** Hukumat, davlat yoki biror tashkilotga oid, shular tomonidan belgilangan. Rasmiy vakil. **2** Hukumat, davlat organlari yoki biror tashkilot tomonidan e’lon qilingan, chiqarilgan, tarqatilgan. Rasmiy ma’lumot. Rasmiy axborot. **3** Qonuniy ravishda tasdiqlangan, rasmiylashtirilgan. Rasmiy hujjatlar. Rasmiy tashkilot. **4** Davlat yo‘li bilan olib boriladigan muomala, yozishma va hujjat tiliga xos bo‘lgan; maktubiy. Rasmiy uslub [1.B.353].

Ekstralivingistik faktorlar (lotincha ekstra – tashqi, ligistique – tilga xos). Til taraqqiyotida ta’sir ko‘rsatuvchi obyektiv borliqqa doir shart-sharoitlar. Tilning rivojlanishidagi bunday ekstralivingistik shart-sharoitlarga bиринчи navbatda ijtimoiy-siyosiy faktorlar kiradi [2.B.115].

O‘zbek tilshunos olimlaridan M.Mukarramov ekstralivingistik belgilar sifatida quydagilarni keltirib o‘tadi: “Ekstralivingistik faktorlarga aloqaning maqsad va vazifasi, aloqa mazmuni, aloqa doirasi, nutq formasi (yozma yoki og‘zaki nutq, dialogik yoki monologik nutqlar) kiradi” [3.B.11]. SHuningdek, u ekstralivingistik belgilar qatoriga sotsial faktorlar va stil sathi kabi hodisalarini ham qo‘sadi: “Ekstralivingistik belgilarga sotsial faktorlar, aloqaning maqsad va vazifasi hamda stil sathlari kabi hodisalar kiradi” [3.B.16].

MUHOKAMA. Rasmiy uslubning maqsad va vazifasi rasmiy aloqadan: axborot beruvchi va qabul qiluvchilar bo‘lib, bular ikki holatda tasniflanadi:

Birinchi tasnifda axborot beruvchi – rahbar, axborotni qabul qiluvchi – xodim hisoblanadi. Rasmiy ish hujjatlaridan ushbu guruhga kiruvchi ish hujjatlariga farmoyish hujjatlari: buyruq, ko‘rsatma, farmoyish kabi hujjatlar kiradi. Aloqa shakli og‘zaki va yozma tarzda ifodalanadi. Ikkinci tasnifda esa, xodim – axborot beruvchi, rahbar – axborotni qabul qiluvchi bo‘lib, bunday rasmiy ish hujjatlarga ma’lumot – axborot hujjatlari guruhiga kiruvchi: ariza, bayonnomma, tilxat, tushuntirish xati, ma’lumotnomma va shu kabi ish hujjatlari kiradi. Bunda aloqa shakli, asosan, yozma tarzda ifodalanadi.

Ilmiy stilning sathlariga aniqlik, obyektivlik, logik izchillik, neytrallik, qisqalik va to‘liqlik kabi faktorlar kiradiki, bu faktorlar ko‘p hollarda ilmiy tekstning lingvistik belgilarida ko‘rinadi [3.B.17].

Rasmiy uslubda ham ilmiy stilga xos aniqlik, logik izchillik, qisqalik va to‘liqlik kabi ekstralingvistik belgilar mavjud bo‘lib, bunda yuqorida M.Mukarramov ustoz ta’kidlagan stil sathlariga kiruvchi faktorlar emas, balki rasmiy uslubning ekstralingvistik belgisi sifatida qaraladi. CHunki stil sathi deb qaraydigan bo‘lsak, ifodalovchi birligi mavjud bo‘lishi kerak, masalan, fonetik sathning birligi fonema, leksik sathning birligi leks, sintaktik sathning birligi esa so‘z birikmasi va gap hisoblanadi. Aniqlik, logik izchillik, neytrallik, qisqalik va to‘liqlik kabi belgilarda ifodalovchi birligi mavjud emas.

Aniqlik rasmiy matnlarning asosiy belgisi xisoblanadi. CHunki aniq ma’lumotsiz axborotning berilishi mumkin emas.

ISHONCHNOMA

Men, Sobir Ahmedov, o‘z ukam Sardor Ahmedovga (AB seriyadagi 3365452raqamli pasportga ega) Madaniyat saroyi kassasidan 2020-yil sentyabr oyi uchun yozilgan maoshimni olishga ishonch bildiraman.

2020-yil 7-sentyabr

(imzo)

S.Ahmedov

S.Ahmedovning imzosini tasdiqlayman.

Madaniyat saroyi kadrlar bo‘limi boshlig‘i

(imzo)

S.Komilov

(sana)

(muhr)

Logik izchillik fikrning bir-biriga mantiqiy bog‘lanishida, izchil bayon etilishida, rasmiy uslubda izchillikni yuzaga keltiruvchi maxsus o‘ziga xos so‘z va birikmalarning (-sh (-ish) maqsadidi, -sh (-ish) uchun, “...tayyorgarlikning borishi haqida”, “...qarorning bajarilishi to‘g‘risida”, “...yordam berish maqsadida”, “...qabul qilishingizni so‘rayman”) mavjudligida aks etadi.

MA’LUMOTNOMA

Fermer xo‘jaligining

to 'rtburchak muhri.

Viloyat, tuman

fermer xo 'jaligi nomi. *Murod To 'xtasinovich Olimov*

2018 yildan beri Farg 'ona tumanidagi

"Baraka" fermer xo 'jaligida katta hisobchi lavozimida ishlamoqda.

Ma'lumotnoma tuman ijtimoiy ta'minot bo'limiga ko'rsatish uchun berildi.

Fermer xo 'jaligi

boshqaruvi raisi (imzo)

O.Rahimov

Kotibi (imzo)

R.Kamolov

(muhr)

Qisqalik rasmiy uslubga xos belgilardan biridir. Rasmiy bayon ortiqcha tasvirni, izohni talab etmaydi. SHuning uchun rasmiy bayonda narsa va hodisalar tasviri uchun o'xshatish, sifatlash, jonlantirish, mubolag'a kabi tasviri vositalar qatnashmaydi.

TELEGRAMMA

FARG 'ONA 12 KATTABOG '18

SALIMOVGA YIGIRMA OLTINCHI DEKABRDA 123 REYS BILAN UCHAMAN KUTIB OLING SAYYORA

100187 Toshkent 187 Sadaf ko'chasi 4-uy

To'liqlik rasmiy nutqning sintaktik belgilarida ko'rindi. Ushbu nutqda aniq ma'lumotni berish uchun aniqlovchi, to'ldiruvchi, hol, kesim kabi bo'laklar tushirib qoldirilmaydi. Rasmiy uslubda to'liqsiz gaplar uchramaydi.

"Hujjatlar matnini tuzishda turg'unlashgan, qoliplashgan so'z birikmalaridan ko'proq foydalanish lozim. CHunki qoliplashgan, yagona doimiy shaklga ega bo'lgan so'z tizimlari, iboralar, muhandislik psixologiyasi ma'lumotlariga ko'ra, boshqa so'z birikmalariga qaraganda 8-10 marta tez idrok qilinar ekan. Buning ustiga qoliplashgan so'z birikmali hujjatlarni tayyorlash va ulardan foydalanish jarayonlarini anchagina tezlashtirish imkonini beradi [5.B.16]. SHuning uchun o'zbek tilidagi rasmiy ish hujjatlarida deyarli qoliplangan birliklardan foydalaniladi. Masalan, buyruqda "...so'm oylik maosh bilan ...lavozimiga tayinlansin", "...o'z xohishiga ko'ra ...lavozimidan ozod qilinsin" kabi qoliplashgan tuzilmalar qo'llanishi mumkin.

XULOSA

Tilshunos olim Q.Omonov ta'kidlaganidek, "Rasmiy matnning xarakterini ko'rsatuvchi eng muhim jihat uning amaliyotga yo'naltirilgani, ya'ni oldindan ko'zda tutilgan maqsadni bajarishga qaratilganligidadir. SHuning uchun u tugal tizim sifatida o'z mazmuni va qurilmalariga ega tugallangan xabar sifatida ko'z oldimizga keladi" [4.B.21]. Darhaqiqat, har

bir rasmiy uslubga oid matn ko‘zda tutilgan muayyan maqsad uchun xizmat qiladi va mukammal, aniq manba sifatida hayotimizda keng qo‘llaniladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. - Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”. 2008.
2. Ҳожиев А. Лингвистик терминларнинг изоҳли луғати. - Тошкент: Ўқитувчи. 1985.
3. Мукаррамов М. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг илмий стили. - Тошкент: “Фан”. 1984.
4. Омонов Қ. Туркий расмий услубнинг юзага келиши ва такомили (илк ва ўрта асрлар). ДДА. Тошкент, 2016.
5. Аминов М., Мадвалиев А., Махкамов Н., Махмудов Н. Иш юритиш. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, 2015.
6. Шомақсудов А., Расулов И., Қўнғуров Р., Рустамов Ҳ. Ўзбек тили стилистикаси. - Тошкент: Ўқитувчи. 1983.